

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/26.01.2023.T.109.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI**

QAYUMOVA LOBAR SHODIMURODOVNA

**YENGIL SANOAT RANGLI OQOVA SUVLARINI
ULTRAFILTRATSIYA USULIDA TOZALASHNI TADQIQ ETISH**

**05.09.04 – Suv ta’minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini
muhofazalovchi qurilish tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Qayumova Lobar Shodimurodovna

Yengil sanoat rangli oqova suvlarini ultrafiltratsiya usulida tozalashni
tadqiq etish..... 3

Каюмова Лобар Шодимуродовна

Исследование ультрафильтрационной очистки цветных сточных
вод легкой промышленности 21

Kayumova Lobar Shodimurodovna

Research on ultrafiltration treatment of light industrial colored effluent 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/26.01.2023.T.109.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI**

QAYUMOVA LOBAR SHODIMURODOVNA

**YENGIL SANOAT RANGLI OQOVA SUVLARINI ULTRAFILTRATSIYA
USULIDA TOZALASHNI TADQIQ ETISH**

**05.09.04 – Suv ta’minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini
muhofazalovchi qurilish tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan № B2021.1.PhD/T2150 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdaqu.edu.uz) va «Ziyonet» (www.ziyonet.uz) Axborot-ta'lim portaliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jurayev Olmos Joniqlovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Umbarov Ibragim Amonovich
texnika fanlari doktori, professor

Yakubov Kutfidin Asliyevich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.26/26.01.2023.T.109.03 raqamli ilmiy Kengashning «___» _____ 2025-yil soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140143, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel: (+99866) 237-15-93, faks:(+99866)-237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz.).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Samarqand sh., Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel: (+99866) -237-15-93.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi. (2025-yil «__» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

D.R.Bazarov

Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

B.M.Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

J.Akilov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m, f. d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida suv havzalarining sanoat oqova suvlari bilan ifloslanishini bartaraf etish uchun atrof - muhitni himoyalash va tabiiy resurslardan maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lmog'da. Yengil sanoatda bo'yovchi moddalar xilma-xilligining ortishi va ularning matoga mustahkam o'rnamaydigan qismining yengil sanoat oqova suvlari bilan birgalikda chiqishi ortib bormog'da. Bunday oqova suvlarni asosiy tozalash usullari flotatsiya, koagulyatsiya, sorbtsiya, destruksiya usullari bo'lib, ushbu usullar yordamida oqova suvlarni tozalash samaradorligi 40-45 foizdan oshmaydi. Shuning uchun ekologik jihatdan xavfsiz, arzon, qo'llanishda qulay bo'lgan kombinatsion fizik-kimyoviy usullarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi tanlovchan, termik va kimyoviy barqaror ion-almashinuvchan materiallar olishga, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga zamin yaratmog'da. Bu borada yengil sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalash uchun qo'llaniladigan ultrafiltratsiya usuli asosida makkajo'xori kraxmalini tadqiq qilish orqali dinamik membranalar hosil qilish, oqova suvning tarkibi va pH ko'rsatgichi asosida ko'p komponentli tarkiblarni yaratish, ularning mexanik va osmotik xususiyatlarini yaxshilash, shuningdek, oqova suvlarni tozalash jarayonida sodir bo'ladigan fizik – kimyoviy jarayonlarning mexanizmlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmog'da.

Bundan tashqari, oqova suvlarni tozalashning ultrafiltratsiya, teskari osmos va boshqa usullari bilan kombinatsiyalangan usullarini ishlab chiqish hamda jarayonni zamonaviy texnologiyalar bilan takomillashtirish ustida ham izlanishlar olib borilmog'da.

Respublikamizda yengil sanoat sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob bera oladigan yangi turdagi koagulyatsiya, flokulyatsiya va sorbtsiya, shuningdek, asetatsellyuloza membranalarini ligninlar asosida dinamik membrana (DM) hosil qilish bo'yicha ma'lum ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga erishilgan, ayniqsa yangicha yondoshuvlarga asoslangan, filtrlarga nisbatan tanlovchan atsetatsellyuloza membranalarini asosida (DM) olingan. Shu bois, ichki bozorni import o'rni bosuvchi mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmog'da. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasida "Ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan mahsulot va texnologiyalarning tubdan yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish"ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Shunga muvofiq, oqova suvlarni tozalashda yangi komponentlar tarkibini, tozalash mexanizmlarini aniqlash va oqova suvlarni tozalashning yangi, samarali usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda respublikamizda yengil sanoat ishlab chiqarish korxonalariga talab qilingan suvni kafolatlangan miqdorda yetkazib berilishini ta'minlash uchun

suv tejash texnologiyalaridan foydalanish, texnologiyalarning optimal parametrlarini aniqlash, oqova suvlarning ifloslanish darajasiga belgilangan me'yoriy ko'rsatgichlardan ortib ketmaslik, yangi texnologiyalardan foydalanishni va rangli oqova suvlarni tozalash texnologiyalarini takomillashtirish yo'li bilan ishonchli ishlashini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «III. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash»¹ da 31-maqсад qilib "Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish" belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, barcha sohalarni suv bilan barqaror va ishonchli ta'minlash, yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish, suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni inobatga olib, sanoat korxonalarida hosil bo'ladigan oqova suvlarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-yanvardagi PQ-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va 2017-yil 25-sentabrdagi PQ-3286-sonli "Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI – "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" yo'nalishlari doirasida bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda yengil sanoat oqova suvlaridan samarali qayta foydalanish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan va amaliyotga tadbiriq etilgan.

Sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalash bo'yicha S.S. Saidov, K.A. Yakubov, E.S. Buriyev, O.J. Jurayev, M.A. Asqarov, I.I. Ismoilov, Yu.T. Toshpulatov, M.Z. Abdukarimova, M.R. Amonov, E.Yu. Kirshina, L.M. Shapovalova, S.S. Negmatov, E.F. Eshqurbonov kabi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Ularning ilmiy ishlarida mamlakatimizdagi yengil sanoat korxonalarining oqova suvlarini turli usullar yordamida tozalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, S.A. Brandon, Y.S. Johnson, Y.Y. Minturn, Y.I. Ditnerskiy, T.A. Karyuxina, I.N. Churbanova, G.V. Vasilev, Y.M. Laskov, A.I. Jukov, I.L. Mongayt, I.D. Podziller, S.M. Shifrin, I.G. Krasnoborodko, A.M. Kaganovski, N.A. Klimenko, V.I. Nazarov, K.G. Aslova, L.A. Kulskiy, N.N. Abramov, T.V. Knyazkova, V.P. Gusev, K.F. Krikunov, Y. Gaddis kabi olimlar ham sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalashning samarali usullarini tadqiq qilganlar.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

Biroq hozirgi vaqtda yengil sanoat oqova suvlarini samarali tozalash bo'yicha hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Hozirgi zamon iqtisodiy va ekologik talablarga javob beradigan qulay ixcham texnologik usullarni tanlash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti ilmiy kengash rejasining 1-sonida ko'rsatilgan "Sanoat korxonalarini va maishiy oqova suvlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanib tozalash va takomillashgan tizimlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbir etish" (2018–2023-yillar) mavzusidagi amaliy, fundamental va innovatsion loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Yengil sanoat rangli oqova suvlarini tozalashda zamonaviy statik membranalarga makkajo'xori kraxmalini oqova suv tarkibiga qo'shish orqali dinamik membrana hosil qilib, ekologik jihatdan samarali texnologiyani ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- yengil sanoatning bo'yash va pardoqlash ishlab chiqarish bo'limi oqova suvlarini tozalash sharoitida dinamik membrana hosil qiluvchi komponentni tanlash;

- jarayonning turli parametrlarida dinamik membrana (DM) shakllanish dinamikasini o'rganish;

- membrana filtrlarining g'ovakli tuzilishi, filtrlangan eritmaning pH qiymati, konsunratsiyasi va ish bosimining tanlab olingan membrana hosil qiluvchi komponentni (DM) xususiyatlariga ta'sirini o'rganish hamda makkajo'xori kraxmali va uning shakllanishi uchun maqbul sharoitlarni hamda sorbtsion jarayonlarni aniqlash;

- matolarni bo'yash va pardoqlashda hosil bo'ladigan oqova suvlarni tozalash texnologiyasi jarayonida DM yordamida chuqur tozalashda taklif etiladigan sxemalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti. Tadqiqot obyekti sifatida yengil sanoat korxonalarida hosil bo'lgan rangli oqova suvlar olingan.

Tadqiqot predmeti. Tadqiqot predmeti yengil sanoat rangli oqova suvlarini ultrafiltratsiya va dinamik membrana yordamida tozalash jarayonlaridan iborat.

Tadqiqot usullari zamonaviy adabiy manbalarni tahlil qilish va uning asosida muammoni shakllantirish, tadqiqot mavzusini va muammoni hal qilishning nazariy yondashuvlarini tavsiflash, matematik modellashtirish va natijalarini tekshirish (eksperimental natijalari bilan taqqoslash) orqali nazariy takliflarni tekshirish, sanoat sharoitlarida eksperimental tadqiqotlar o'tkazishdan olingan natijalarni sharhlash, qayta ishlatish va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- statik membranalarni polimer qo'shimchalar hisobiga tavsifini yaxshilash uchun makkajo'xori kraxmalidan dinamik membrana hosil qilib, rangli yengil sanoat oqova suvlarini tozalashning texnologik sxemasi ishlab chiqildi;

- statik membranalarni boshlang'ich filtrlash qobiliyati dinamik membranalar hisobiga tiklandi va ishlash samaradorligi oshirish orqali takomillashtirildi;

- statik membranalar g'ovakliklari dinamik membrana hisobiga to'liq bitib qolmasligi hamda membrananing uzluksiz muddatga ishlash unumdorligi oshirish orqali takomillashtirildi;

- yengil sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalashda ultrafiltratsiya usuli hamda dinamik membrananing barqaror ishlash mexanizmi yaratildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nazariy, eksperimental va ishlab chiqarish sharoitida bevosita o'tkazilgan tajriba-sinov va kuzatuvlar natijalari asosida oqova suvlarni barqaror filtrlash, membrana selektivligini to'liq saqlanishi hamda kichik mexanik shikastlanish sodir bo'lsa, filtratsiya jarayonida yangi qatlam hosil bo'lishi tufayli membrananing o'z-o'zini to'liq qayta tiklash qobiliyati parametrlari hisoblab chiqildi;

tadqiqot natijalari "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasiga qarashli "Jizzax Industrial To'qima" MChJ, "Surxonteks" MChJ, "Sherobod Tekstil Invest" MChJ va "Ozod Buxoro Tekstil" MChJ korxonalarida oqova suvlarni ultrafiltratsiya va dinamik membrana yordamida tozalash texnologik sxemalari hamda konstruktiv yechimlarini inobatga olgan holda, oqova suvlardan qayta foydalanishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umumiy qabul qilingan usullar bilan asoslandi va olingan nazariy hamda amaliy ma'lumotlar bilan mustahkamlandi. Tajriba natijalari mazkur tadqiqot yo'nalishidagi boshqa olimlarning natijalari bilan taqqoslanganligi hamda yengil sanoat korxonalarida amaliyotga joriy etilishi ularning samaradorligi va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, standart ultrafiltrlarga asoslangan holda polimer moddalardan dinamik membrana olishning oddiy usuli ishlab chiqilgan. Uning asosida yengil sanoat korxonalarida bo'yash jarayonidan keyin hosil bo'lgan oqova suvlarni dinamik membranalar yordamida tozalashning tubdan jihatdan yangi texnologik sxemasi ishlab chiqildi. Bu esa ajratish xususiyatlarini yaxshilash va membranalarning yangilanishini ta'minlash muammosini hal qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa yengil sanoat korxonalarining oqova suvlarini qayta ishlatish bo'yicha texnologik sxemalar ishlab chiqilishi va ularning optimal parametrlari tavsiya etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi

Yengil sanoat rangli oqova suvlarini ultrafiltratsiya usuli va dinamik membrana yordamida tozalash jarayonini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tadqiqot natijalarini amalda qo'llash ishlari doirasida makkajo'xori kraxmalidan dinamik membrana hosil qilinib, Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumani "Jizzax Industrial To'qima" MChJ korxonasida sinovdan o'tkazildi. Bunda yengil sanoat oqova suvlarini ultrafiltratsiya usulidan foydalangan holda tozalash joriy etildi (O'zto'qimachilik sanoati uyushmasining 2023-yil 18-dekabrda)

03/25-2664-sonli ma'lumotnomasi). Natijada statik membrana filtrlarining ishlash davomiyligini oshirish imkoniyati yaratildi;

Yengil sanoat oqova suvlarini ultrafiltratsiya usuli bilan tozalash orqali tabiiy suv sarfini kamaytirish ishlari Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani "Surxonteks" MChJ korxonasi joriy etildi (O'zto'qimachilik sanoati uyushmasining 2023-yil 18-dekabrda 03/25-2664-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yengil sanoat korxonasi oqova suvlarini ultrafiltratsiya usuli bilan samarali tozalash imkoniyati yaratildi;

Makkajo'xori kraxmalidan dinamik membrana hosil qilib, ranglangan oqova suvlarni tozalash texnologik sxemasi ishlab chiqildi va Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani "Sherobodtekstilinvest" MChJ korxonasi joriy qilindi (O'zto'qimachilik sanoati uyushmasining 2023-yil 18-dekabrda 03/25-2664-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Sherobodtekstilinvest" MChJ korxonasi ishonchli va samarali usulda dinamik membrana yordamida oqova suvlarni chuqur tozalab, tozalangan suvni texnologik jarayonda qayta ishlatish imkoniyati yaratildi;

Yengil sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalashda ultrafiltratsiya usuli va dinamik membrananing ish faoliyatini qayta tiklash mexanizmi mukammal asoslab berildi. Ushbu usul Buxoro viloyati, Kogon tumani "Ozod Buxoro Tekstil" MChJ korxonasi joriy qilindi (O'zto'qimachilik sanoati uyushmasining 2023-yil 18-dekabrda 03/25-2664-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Ozod Buxoro Tekstil" MChJ korxonasi oqova suvlarni chuqur tozalashda makkajo'xori kraxmalidan oddiy usulda statik membranalarda dinamik membrana hosil qilinib, uning asosida tozalangan texnik oqova suvdan qayta foydalanish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, 3 tasi xorijiy (shulardan 1 ta scopus) va 8 tasi respublika jurnallarda nashr qilingan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarini qayt guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilib, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarining ishonchligi asoslab berilgan, nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Yengil sanoat oqova suvlarini fizik-kimyoviy usullarda tozalash haqida adabiyotlar tahlili”** deb nomlanib, O'zbekiston Respublikasining viloyatlarida joylashgan yengil sanoat korxonalarida hosil bo'ladigan rangli oqova suvlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Unda bo'yash, pardozlash va ishlab chiqarish jarayonlarida oqova suvlarni tozalashning zamonaviy holati ko'rib chiqilgan.

Oqova suvlarni tozalashning nazariy va amaliy usullari batafsil tahlil qilingan. Adabiyotlarning tanqidiy tahlili natijasida tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari belgilab olingan.

Shu munosabat bilan ishda quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

- bo'yash va pardozlash ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo'ladigan oqova suvlarni tozalash sharoitida dinamik membrana hosil qilish uchun optimal membrana hosil qiluvchi komponentni tanlash;

- jarayonning turli parametrlarida dinamik membrana shakllanish dinamikasini o'rganish;

- turli membranalarning g'ovakli tuzilishi va filtrlangan eritmaning pH qiymatini o'rganish;

- dinamik membrana hosil qiluvchi qo'shimchalar konsentratsiyasi va ish bosimining tanlangan membrana hosil qiluvchi komponentlarning dinamik membrana xususiyatlariga ta'sirini o'rganish;

- makkajo'xori kraxmalidan foydalanib dinamik membrana shakllanishi uchun maqbul (optimal) sharoitlarni aniqlash;

- dinamik membrana yordamida bo'yash va pardozlash bo'limlarining oqova suvlarini chuqur tozalash texnologiyasining samaradorligini o'rganish;


- ushbu jarayonga asoslangan oqova suvlarni qayta ishlash sxemalarini ishlab chiqish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Tajriba va sinovlar o'tkazish qurilmasiga tavsif hamda laboratoriya tahlili”** deb nomlangan bo'lib, zamonaviy ultrafiltratsiya usuli takomillashtirilib, makkajo'xori kraxmali yordamida statik filtrlarni dinamik membrana asosida uzoq muddat ishlatish imkoniyati yaratildi. Dinamik membrananing qo'llanilishi orqali ekologiya va atrof-muhitning ifloslanishining oldini olish imkoniyati vujudga keladi.

Ultrafiltratsiya jarayonining mohiyati yarim o'tkazuvchan membrana va eritmaning birgalikdagi harakatiga asoslanadi. Yupqa qobiq yoki yupqa

plyonkadan iborat yarim o'tkazuvchan membrana ma'lum molekulalar yoki ionlarning o'tishiga imkon beradi, boshqalarini esa ushlab qoladi.

So'nggi yillarda yengil sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalash uchun ultrafiltratsiya usuli qo'llanilmoqda. Jarayonning afzalliklaridan biri shundaki, ajratish jarayoni atrof-muhit haroratida fazoviy o'zgarishlarsiz sodir bo'ladi, bu esa energiya sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Eng muhimi, membrana texnologiyasining qo'llanilishi natijasida kam elektr energiyasi sarfi, jarayonning to'liq avtomatlashtirilishi, jihozlarning qulay va ixchamligi, ajratish jarayonida hosil bo'lgan filtratni texnologik jarayonga qayta ishlatish hamda oqova suv tarkibidagi sirt faol moddalar va bo'yoqlarni ishlab chiqarishga qaytarish imkoniyati yaratiladi.



1-rasm: Laboratoriya sinov tahlillari o'tkazish uchun o'zgartirilgan tizim.

- | | |
|------------------------------|--------------------------------------|
| 1. Adapter** | 11. Membrana filtri |
| 2. Regulyator | 12. Siqilgan ko'mirdan keyingi filtr |
| 3. Antipotor mexanik ** | 13. Yuqori kalit bosimlar** |
| 4. Past bosimli kalit ** | 14. Cheklovchi |
| 5. 5 mikron cho'kindi filtri | 15. Suv idishi krani |
| 6. Solenoid klapan* | 16. Toza suv idishi |
| 7. Oqim o'lchagich* | 17. Toza suv krani |
| 8. Nasos ** | 18. Displey* |
| 9. Uglarod filtri | 19. Antipotop elektr* |
| 10. 1 mikron cho'kindi filtr | 20. Avtomatik qulflash vanna *** |

Ultrafiltratsiya qurilmasida oqova suv aralashmasini sirkulyatsiya rejimida tozalash bo'yicha qurilma ishlatiladi. Qurilma ishga tushirilgandan so'ng boshlang'ich tahlil olinadi. Har bir soatda 100 ml filtrat maxsus kolbaga tahlil uchun olinadi. Filtrat olish jarayonida tozalanib chiqayotgan suvning tezligi (V), harorati (t°) va pH qiymati aniqlab boriladi. Qurilma kamida 12 soat davomida uzluksiz ishlatiladi(1-rasm).

Har bir tajriba boshlanishidan oldin membrana va substrat bosim ostida yuviladi. Agar boshlang'ich selektivlik kamayib ketsa, membrana yangisi bilan almashtiriladi. Qurilma tuzilishi tuzli suv bilan yaxshilab yuviladi, so'ng distillangan suv bilan chayiladi.

Birinchi filtrat tahlil qilinmaydi, chunki bu bosqichda membrana va substratdan turli xil ionlar yuvilib chiqadi, bu esa tahlil natijalarida xatolik yuzaga keltiradi. Tahlil qilish uchun filtrat quyidagi jadval asosida olinadi:

Har bir tajribaning umumiy davomiyligi filtrat hosil bo'lish tezligiga qarab 12 soatni tashkil etadi. Tahlil uchun filtrat namunalari soatiga olib turiladi. Ish jarayonida tizimda odatda 8–10 litr eritma aylanadi va har bir yangi tajriba uchun yangi tayyorlangan eritma ishlatiladi.

Membrana tuzilishidagi o'zgarishlarning o'rganilayotgan bog'liqliklar xususiyatlariga ta'sirini istisno qilish hamda g'ovakli tuzilmani barqarorlashtirish maqsadida Aura va atsetatsellyuloza membranalari ishlatiladi. Har bir yangi membrana namunasi ish bosimi ostida oldindan siqiladi. Siqish jarayoni distillangan suv tizimida aylanayotganda amalga oshiriladi. Makkajo'xori kraxmali asosida statik filtrlarni dinamik membrana yordamida uzoq muddat samarali ishlatishga erishildi. Shuningdek, dinamik membrana qo'llanilishi orqali ekologiya va atrof-muhit ifloslanishini oldini olish imkoniyati ko'rsatib berildi. Membrananing solishtirma suv o'tkazish qobiliyati.

Quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$G = \frac{W}{F \times t} \quad (1)$$

bu yerda: W – filtrat miqdori (l, ml);

F – membrananing ishchi yuzasi (m²);

t – filtratsiya vaqti (sek, s).

Filtrat tarkibidagi turli xil komponentlarni tutib qolish samaradorligini aniqlash formulasi

$$\eta = 1 - \frac{S_{filtrat}}{S_{bosh}} \quad (2)$$

bu yerda:

S_{bosh} – boshlang'ich eritma (modul eritma) tarkibidagi komponentlar konsentratsiyasi,


$S_{filtrat}$ – filtrat tarkibidagi komponentlar konsentratsiyasi,

η – tutib qolish samaradorligi (nisbiy birlik yoki foizda ifodalanadi).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yengil sanoat oqova suvlarini tozalashda dinamik membrana hosil qiluvchi komponentlarni tanlash va ularning mexanizmini o'rganish”** deb nomlanadi.


Ushbu bobda yengil sanoat korxonalarida hosil bo'lgan oqova suvlar tarkibiga mos makka jo'xori kraxmalini (DM) hosil qiluvchi komponent sifatida tanlash va (DM) hosil qilish shu orqali statik filtrlarning ishlash samaradorligi oshishi asoslab berilgan.

Ultrafiltratsiya usulini qo'llash orqali AURA membranalarida rangli oqova suvini hech qanday qo'shimcha modda qo'shmasdan filtrlab, tahlil qildim. Tahlil jarayonida laboratoriyada olingan natijalar asosida grafik shakllantirildi (2-rasm).



2-rasm. Polimer qo'shimcha qo'shilmagan holat

Yengil sanoat oqova suvlarini ultrafiltratsiya usulida tozalash uchun oqova suv tarkibiga mos model eritma tayyorlandi va shu model eritma asosida tajribalar o'tkazildi. Model eritma oddiy ichimlik suviga 0,5 mg/l kraxmalni 4–5 soniya davomida aralastirib tayyorlandi. 10 litrli suv saqlovchi standart idishda o'lchab olinib, kimyoviy idishga solindi. Qurilma ishga tushirilgach, tahlil olish boshlandi. Har soatda ultrafiltratsiya qurilmasidan chiqayotgan filtrat 100 ml standart o'lchovli kimyoviy idishida laboratoriya tahlili uchun olindi. Olingan filtrat kimyoviy tahlil qilindi, shuningdek, qurilmadan chiqqan filtratning tezligi va harorati qayd etib borildi (3-rasm).



3-rasm. Rangli oqova suv tarkibiga makkajo‘xori kraxmalini qo‘shish orqali olingan ultrafiltratsiya natijasi

Dinamik membrananing asosiy afzalliklaridan biri – uning yuqori o‘tkazuvchanligidir. Soatiga har bir kvadrat metr yuzadan olingan filtrat miqdori yuzlab litrgacha yetadi, bu esa AURA membranasining o‘tkazuvchanligi va barqarorligidan ancha yuqori. Dinamik membrananing ishlash muddati normal sharoitlarda deyarli cheklanmagan. Bu holat statik filtrlarning ishlash davomiyligini oshiradi va, shu bilan birga, ajratib olingan filtratdan yopiq zanjirli tizim barpo etish hamda texnologik jarayonda filtratdan qayta foydalanish imkonini beradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, makkajo‘xori kraxmalini qo‘shganda barqaror dinamik membrana hosil bo‘lganligi kuzatildi. Dinamik membrana hosil bo‘lgach, filtrat tarkibi deyarli o‘zgaras natijani ko‘rsatdi. Dinamik membrana hosil bo‘lishi natijasida statik membrana filtri ishlash davomiyligi va membrana selektivligi oshdi hamda filtrat tarkibi o‘zgaraganligi aniqlandi. Bu esa, o‘z navbatida, tozalangan suvdan ishlab chiqarish jarayonida qayta foydalanish imkonini yaratib, yopiq zanjirli tizim barpo etish imkonini beradi.

Oqova suv tarkibiga natriy karboksilmetilselyuloza qo‘shilib ultrafiltratsiya usulida tozalangan filtrat ko‘rsatkichlari va oqova suv tarkibiga makkajo‘xori kraxmalini qo‘shib ultrafiltratsiya usulida tozalangan oqova suvning solishtirma 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

**Natriy karboksilmetilselyuloza va makkajo‘xori kraxmalining
solishtirma natijalari**

NaKMS			Makkajo‘xori kraxmali		
Bir kvadrat metr yuzada membrananing filtrlash unumdorligi, l/m ² ·h	Teskari osmos qurilmasida filtrlangan oqova suv tarkibidagi bo‘yoq miqdori, mg/l	Teskari osmos qurilmasida filtrlangan oqova suv tarkibidagi sirt faol modda miqdori, mg/l	Bir kvadrat metr yuzada membrananing filtrlash unumdorligi, l/m ² h	Teskari osmos qurilmasida filtrlangan oqova suv tarkibidagi bo‘yoq miqdori, mg/l	Teskari osmos qurilmasida filtrlangan oqova suv tarkibidagi sirt faol modda miqdori, mg/l
21,529	0,25	0,18	24,038	0,07	0,163
21,241	0,38	0,25	23,364	0,05	0,09
21,241	0,4	0,17	22,753	0,09	0,05
18,298	0,26	0,19	21,575	0,08	0,06
18,692	0,26	0,13	21,299	0,08	0,05
19,802	0,26	0,13	20,534	0,08	0,05
21,241	0,26	0,13	24,038	0,08	0,05
20,768	0,26	0,13	22,447	0,08	0,05
19,417	0,26	0,13	23,041	0,08	0,05
20,510	0,26	0,13	25,094	0,08	0,05
21,256	0,26	0,13	23,068	0,08	0,05
21,299	0,26	0,13	25,126	0,08	0,05

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, natriy karboksilmetilselyulozaga qaraganda makkajo‘xori kraxmalini oqova suv tarkibiga qo‘shganda barqaror dinamik membrana hosil bo‘lganligi hamda uning ustunlik darajasi yuqoriligi kuzatildi. Dinamik membrana hosil bo‘lgach, filtrat tarkibi deyarli o‘zgarmas natijani ko‘rsatdi. Natijalardan ham ko‘rinadiki, makkajo‘xori kraxmalining tozalash darajasi ortgan. Dinamik membrana hosil bo‘lishi natijasida statik membrana filtrining ishlash davomiyligi va membrana selektivligi oshdi, shuningdek, filtrat tarkibi o‘zgarmaganligi aniqlandi. Bu esa, o‘z navbatida, tozalangan suvdan ishlab chiqarish jarayonida qayta foydalanish imkonini yaratib, yopiq zanjirli tizim barpo etish imkonini beradi.

Tekis yuzaga adsorbtsiyaning matematik modeli. Tekis yuzadagi adsorbtsiyaning tezligi molekullarning yuzaga o‘tirishi va yuzadan ko‘tarilishi jarayonlariga bog‘liq. Tekis yuzaga muhit molekullarining o‘tish tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$v_1 = \alpha\mu (1 - \theta)$$

bu yerda: μ — 1 sm² yuzaga bir sekunda tushayotgan molekullar soni,

θ — vaqt da yuzaning birligiga adsorbtsiyalangan modda ulushi

bunda 1sm² yuzaga o‘tirib qolgan bir sekunda o‘tirishi, vaqtda yuz birligiga adsorbtsiya hajmi.

Teskari adsorbtsiyaning tezligi aniqlanadi

$$v_2 = v\theta_1$$

bu yerda: θ_1 — yuzadan ko‘tarilayotgan molekullar ulushi.

Demak, umumiy holda yuzadagi adsorbtsiyaning tezligi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$v \frac{dv}{dt} = v_1 - v_2 = \alpha\mu (1 - \theta) - v\theta_2$$

Bu tenglamadan quyidagi ifoda hosil bo‘ladi:

$$\theta = \theta_\infty (1 - e^{-kz})$$

bu yerda: $k = \frac{\alpha\mu}{v_0}$ — tezlik konstantasi,

θ_∞ — to‘ldirilgan sirt qismi (maksimal adsorbtsiyalangan ulush),

t — vaqt. (sek, h)

Diffuziya jarayoni. Adsorbtsiyaga parallel ravishda, sorbent g‘ovaklarida diffuziya jarayoni ham sodir bo‘ladi, bu ochiq yuzadagi adsorbtsiyadan farq qiladi. Izotermik sharoitda diffuziya konsentratsiyaning kamayishi yo‘nalishi bo‘yicha Fik qonuniga asoslanadi:

$$P = -D \frac{\partial c}{\partial y}$$

bu yerda: P — diffuziya oqimi zichligi,

$\frac{\partial c}{\partial x}$ — muhitning konsentratsiya gradienti,

D — diffuziya koeffitsienti.

Bir o‘lchovli diffuziya tenglamasi:

$$\frac{\partial c}{\partial z} = D \frac{\partial^2 c}{\partial x^2} \quad (3)$$

bu yerda: C — konsentratsiya,

t — vaqt, sek, h)

x — koordinata o‘qi,

D — diffuziya koeffitsienti.

Koordinata o‘qi boshlang‘ich nuqtasi tekislik ichida joylashgan deb hisoblanadi (4-rasmga qarang).

4-rasm. Koordinata o‘qi boshlang‘ich nuqtasi

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlari. Boshlang‘ich vaqtda muhit konsentratsiyasi nolga teng deb qabul qilinsin. Tekislik boshida esa C_1 konsentratsiyasi qo‘shiladi. U holda boshlang‘ich va chegaraviy shartlar quyidagicha bo‘ladi:

U holda boshlang‘ich va chegaraviy shartlar quyidagicha bo‘ladi:

$$C(0z) = C_0, \quad C(X_1 0) = 0, \quad \frac{\partial c(l_1 t)}{\partial x} = 0 \quad (4)$$

Bu shartlarda (3) tenglamaning yechimi qo‘yidagicha bo‘ladi:

$$\frac{c}{C_0} = 1 - \frac{4}{\pi} \sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n} \sin\left(\frac{n\pi}{2}\right) \cos\left(\frac{n\pi(x-l)}{2l}\right) e^{\left(\frac{-n\pi}{2l}\right)} D\tau \quad (5)$$

O'rtacha konsentratsiyasi qo'yidagicha aniqlanadi:

$$\bar{C} = \frac{1}{l} \int_0^l c dx \quad (6)$$

(6) formulani hisobga olsak

$$\frac{C}{C_0} = 1 - \frac{8}{\pi^2} \sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{(2n-1)^2} \bar{e}^{-\left(\frac{(2n-1)^2 \tau Dt}{4l^2}\right)} \quad (7)$$

bu yerda: $\tau = \left(\frac{n}{2l}\right)^2 Dt$ - , diffuziya jarayonidagi o'lchovli parameter,

D-diffuziya koeffitsenti,

t-vaqt, (sek, h)

l-qatlam qalinligi yoki uzunligi.

(7) formula diffuziya tenglamasidan kelib chiqqan bo'lib, chiziqli adsorbsiya uchun to'g'ri bo'ladi.

bu yerda: $\frac{C}{C_0}$ konsentratsiya nisbati adsorbsiya qiymati orqali quyidagicha ifodalanadi:


$$\varphi = \frac{a}{a_{\infty}} = 1 - \frac{8}{\pi^2} \sum_{m=1}^{\infty} \frac{\bar{e}^{-(2m-1)^2 \tau}}{(2m-1)^2} \quad (8)$$


bu yerda: φ – adsorbsiyaning nisbiy qiymati,

a – joriy vaqtdagi adsorbsiyaning miqdori,


a_{∞} – cheksiz vaqtda ($t \rightarrow \infty$) erishiladigan maksimal adsorbsiyaning qiymati.

Dissertatsiyaning **“Dinamik membrana hosil qilish texnologik jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish”** deb nomlangan **to'rtinchi bobida** tadqiqot obyekti bo'yicha bajarilgan ilmiy ish natijalarini amaliyotga tadbiiq etish samaradorligini hisoblash natijalari keltirilgan.





3-sxema: Flotatsiyadan keyin bo'yash jarayonlarida hosil bo'lgan oqova suvni dinamik membrana (DM) yordamida ultrafiltratsiya usuli bilan tozalash sxemasi.



4-sxema: Kubli bo'yashdan keyin ajratilgan oqova suv oqimini dinamik membrana (DM) yordamida ultrafiltratsiya usuli bilan tozalash sxemasi.

Sirt faol moddalar, bo'yoqlar va mineral aralashmalarni samarali tozalash yoki sirt faol moddalar hamda bo'yoqlarni ajratish alohida ahamiyatga ega.

Jarayonda ajratib olingan filtratni texnologik jarayonda qayta ishlatish mumkin. Bo'yoqlar va sirt faol moddalardan qayta foydalanishni yo'lga qo'yish uchun alohida texnologik sxema talab etiladi. Ushbu muammoni hal qilishdan

maqsad – dinamik membranalarining istiqbollari va ularning boshqa membranalarga nisbatan afzalliklarini hisobga olgan holda, yengil sanoat korxonalarida texnologiyasida ishlatiladigan membrana hosil qiluvchi qo‘shimchalardan dinamik membranalarini shakllantirish va ularning ishlash texnologiyasini o‘rganish hamda ishlab chiqish edi.

Yengil sanoat ishlab chiqarish korxonalarida bo‘yash jarayonidan hosil bo‘lgan rangli oqova suvlarni qayta ishlashning texnologik sxemasi va uning texnik-iqtisodiy bahosi hisoblab chiqildi. “Ozod Buxoro Tekstil” MChJ ishlab chiqarish korxonasida bunday sxemadan foydalanish natijasida kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 268 million so‘mni tashkil etadi.

XULOSA

“Yengil sanoat rangli oqova suvlarini ultrafiltratsiya usulida tozalashni tadqiq etish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Yengil sanoat korxonalarining sharoitlari va texnik xususiyatlariga asoslanib, polimer qo‘shimchalardan dinamik membrana hosil qilish va undan foydalanish orqali rangli oqova suvlarini membranalarda samarali tozalash va oqova suvlardan qayta foydalanish imkoniyati aniqlandi.

2. 1812-75 markali asetatsellyuloza membranalarining an’anaviy ishlash xususiyatlarini takomillashtirish maqsadida makkajo‘xori kraxmalidan dinamik membrana hosil qilish mexanizmi ishlab chiqildi, bu esa rangli oqova suvlarni filtrlash jarayonining samaradorligini oshirish imkonini yaratdi.

3. Makkajo‘xori kraxmali amaliyotda qo‘llanilgan Na-KMS asosida hosil qilingan dinamik membrana qo‘shimchasi bilan taqqoslandi va natijada makkajo‘xori kraxmalining afzalliklari aniqlab berildi.

4. 1812-75 markali asetatsellyuloza g‘ovak strukturali membranalarining dastlabki xususiyatlarining dinamik membrana xususiyatlariga ta’siri o‘rganildi. O‘rganish natijasida makkajo‘xori kraxmalidan barqaror dinamik membrana hosil qilinib, laboratoriya sharoitida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazildi.

5. Laboratoriya sinovlari natijalari asosida dinamik membrana rejimida ishlash uchun filtr-press tipidagi sanoat ultrafiltratsiya qurilmalari 1812-75 markali asetatsellyuloza tipidagi membrana jihozlari bilan jihozlanish imkoniyati o‘rganildi. Natijada ultrafiltratsiya texnologik jarayonida makkajo‘xori kraxmalidan barqaror dinamik membrana hosil qilinib, sinovdan o‘tkazildi.

6. Fizik-kimyoviy omillarning (sirt faol moddalar va bo‘yoqlar konsentratsiyasi, makkajo‘xori kraxmali, shuningdek pH qiymati) dinamik membrana xususiyatlariga ta’siri o‘rganildi. Rangli oqova suvlarni tozalashda ushbu parametrlarning optimal qiymatlari aniqlanib, ularning samarali chegaralari belgilandi.

7. Yengil sanoat ishlab chiqarish korxonalarida bo‘yash jarayonidan hosil bo‘lgan rangli oqova suvlarini qayta ishlashning texnologik sxemalari ishlab chiqildi va uning texnik-iqtisodiy samaradorliklari baholandi. “Ozod Buxoro

Tekstil” MChJ ishlab chiqarish korxonasida bunday sxemadan foydalanish natijasida kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 268 million so‘mni tashkil qildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.26/26.01.2023.Т.109.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГОСУДАРСТВЕННОМ
САМАРКАНДСКОМ АРХИТЕКТУРНО - СТРОИТЕЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**САМАРКАНДСКИЙ АРХИТЕКТУРНО - СТРОИТЕЛЬНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

КАЮМОВА ЛОБАР ШОДИМУРДОВНА

**ИССЛЕДОВАНИЕ УЛЬТРАФИЛЬТРАЦИОННОЙ ОЧИСТКИ
ЦВЕТНЫХ СТОЧНЫХ ВОД ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**05.09.04 – Водоснабжение. Канализация.
Строительные системы охраны водных ресурсов.**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2021.1.PhD/T2150

Диссертация была выполнена в Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.samdaqu.edu.uz) и на информационно образовательном портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель: **Жураев Олмас Жоникулович**
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Умбаров Иброгим Амонович**
доктор технических наук, профессор
Якубов Кутфидин Аслиевич
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация: **Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится ____ “_____” 2025 г ____ часов на заседании Научного совета PhD 26/26.01.2023.Т.№109.03 при Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете имени Мирзо Улугбека по адресу :140143, г. Самарканд , улица Лолазор, дом 70.: тел: (+99866) 237-15-93, факс:(+99866)-237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz).

С докторской диссертацией PhD можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного архитектурно-строительном университете имени Мирзо Улугбека (зарегистрирован по номеру ____).Адрес : г. Самарканд , улица Лолазор, дом 70.: тел: (+99866) 237-15-93,

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года
(протокол рассылки № ____ от . «__» _____ 2025).

Д.Р.Базаров
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней
доктор техн. наук, профессор

Б.М.Норкулов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Ж.Акилов
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор физико-матем
наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня во всем мире охрана окружающей среды и целенаправленное использование природных ресурсов приобретают все большее значение для устранения загрязнения водоемов промышленными сточными водами. В легкой промышленности растет разнообразие красителей, происходит совместный со сточными водами легкой промышленности выброс части, которая не прочно оседает на ткани. Основными методами очистки таких сточных вод являются методы флотации, коагуляции, сорбции, деструкции составляет, эффективность очистки сточных вод этими методами не более 40-45 процентов. Поэтому важно разработать комбинированные физико-химические методы, которые являются экологически безопасными, доступными, простыми в применении.

В настоящее время развитие промышленного производства создают основу для проведения научно-исследовательских работ, направленных на получение селективных, термически и химически стабильных ионообменных материалов, локализацию производства. В связи с этим особое внимание уделяется созданию динамических мембран путем исследования кукурузного крахмала методом ультрафильтрации, применяемым для очистки сточных вод предприятий легкой промышленности, созданию многокомпонентных составов на основе состава сточных вод и показателя рН, улучшению их механических и осмотических свойств, а также выявлению механизмов физико-химических процессов, протекающих в процессе очистки сточных вод.

Кроме того, ведутся исследования по разработке методов очистки сточных вод в сочетании с ультрафильтрацией, обратным осмосом и другими методами, а также по совершенствованию процесса с помощью современных технологий.

В развитии легкой промышленности нашей республики достигнуты определенные научные и практические результаты по новым видам коагуляции, флокуляции и сорбции, способным удовлетворить современные требования, а также по созданию на основе лигнинов ацетацеллюзных мембран динамической мембраны (ДМ). На основе программных мер, реализованных в этом направлении, были получены определенные результаты, особенно на основе новых подходов к фильтрам на основе селективных мембран из ацетацеллюлозы (ДМ). В связи с этим осуществляются широкомасштабные мероприятия в области обеспечения отечественного рынка импортной замещающей продукцией. Местного производства в стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены важные задачи, направленные на “Освоение производства принципиально новых видов продукции и технологий, обеспечивающих конкурентоспособность национальных товаров на внутреннем и внешнем рынках”. Соответственно, при очистке сточных вод становится важным определение нового компонентного состава, механизмов очистки и разработка новых эффективных методов очистки сточных вод.

В настоящее время в республике осуществляются комплексные мероприятия по обеспечению гарантированного снабжения предприятий легкой промышленности водой с использованием водосберегающих технологий, определения оптимальных параметров технологий, не превышающих нормативных показателей, установленных на уровень загрязнения сточных вод, обеспечения надежного функционирования за счет использования новых технологий и совершенствования технологий очистки цветных сточных вод. В новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы «III. Обеспечение ускоренного развития и высоких темпов роста национальной экономики» в целях¹ из 31 “по коренному реформированию системы управления водными ресурсами и экономии воды отмечена реализация отдельной государственной программы”. При реализации этих задач важное значение приобретает устойчивое и надежное водоснабжение всех отраслей, развитие предприятий легкой промышленности, сокращение сточных вод, образующихся на промышленных предприятиях, с учетом эффективного и рационального использования водных ресурсов.

Указ Президента Республики Узбекистан от 8 января 2022 года №УП-60 "о новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы" и постановление Правительства Республики Узбекистан от 25 сентября 2017 года № УП-3286 "о мерах по дальнейшему совершенствованию системы охраны водных объектов", а также другие нормативные акты, касающиеся осуществления поставленных в правовых актах задач в определенной степени служит данная диссертационная работа.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках VI направления развития науки и технологий республики – "Сельское хозяйство, биотехнология, водные проблемы, экология и охрана окружающей среды".

Степень изученности проблемы. В настоящее время выполнено и внедрено в практику множество научно-исследовательских работ по эффективному повторному использованию сточных вод легкой промышленности.

По очистке сточных вод промышленных предприятий такие ученые, как С.С.Саидов, К.А. Якубов, Э.С.Буриев, О.Ж.Жураев, М.А.Аскарлов, И.И.Исмаилов, Ю.Т. Ташпулатов, М.З.Абдукаримова, М.Р.Амонов, Е.Ю. Киршина, Л.М. Шаповалова, С.С.Негматов, Эшкурбанов, внесли свой вклад. В их научной работе освещены вопросы очистки сточных вод предприятий легкой промышленности нашей страны различными методами. Также Такие ученые, как С.А.Брандон, Ю.С.Джонсон, Ю.Й.Минтурн, Ю.И.Дитнерский, Т.А. Карюхина, И.Н.Чурбанова, Г.В.Васильев, Ю.М.Ласков, А.И.Жуков, И.Л. Монгайт, И.Д.Подзиллер, С.М.Шифрин, И.Г.Краснобородко, А.М. Кагановский, Н.А. Клименко, В.И.Назаров, К.Г.Аслова, Л.А.Кульский, Н.Н.Абрамов, Т.В.Князкова, В.Р.Гусев, К.Ф.Крикунов, Ю.Гэддис, также исследовали эффективные

